

## **IZOHLI LUG` ATLARDA FALSAFAGA OID TERMINLAR TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH VA IZOHLI LUG` ATGA KIRITILISHI KERAK BO`LGAN TERMINLAR**

*Berdibekova Hulkar Mavlonovna,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch-doktoranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada izohli lug` atlarda falsafaga oid terminlarning tavsifini takomillashtirish va kiritilishi lozim bo`lgan terminlar haqida so`z yuritiladi*

*Kalit so`zlar: termin, falsafa, lug`at, izoh, tavsif, ro`yxat, takomillahtirish*

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПИСАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ ТЕРМИНОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ И ТЕРМИНОВ, КОТОРЫЕ ДОЛЖНЫ ВХОДИТЬ В ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ**

*Berdibekova Hulkar Mavlonovna,  
докторант Джиззакского государственного педагогического университета*

*Аннотация: В данной статье говорится об улучшении описания философских терминов в толковых словарях и о терминах, которые следует включать.*

*Ключевые слова: термин, философия, словарь, объяснение, описание, список, усовершенствование.*

## **IMPROVING THE DESCRIPTION OF PHILOSOPHY TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES AND TERMS THAT SHOULD BE INCLUDED IN THE EXPLANATORY DICTIONARY**

*Berdibekova Hulkar Mavlonovna,  
PhD student of Jizzakh State Pedagogical University.*

*Abstract: This article talks about improving the description of philosophical terms in explanatory dictionaries and about the terms that should be included.*

*Key words: term, philosophy, dictionary, explanation, description, list, improvement*

Insoniyattaraqqiyotidaharbirfanning o`z o`rni bo`lgani kabi falsafaning ham alohida nufuzi mavjud. Jamiyatdagi har bir shaxs xoh u olim bo`lsin xoh omi, barchasining falsafiy tushunchalardan foydalanishi, unga murojaat qilishi sodir bo`lib turadigan hodisa. Har bir inson xohlasa-xohlamasa, hamisha qaysidir falsafiylikka aloqador bo`ladi. Falsafaga oid terminlarni tizimlashtirilgan holda o`rganish, uni lug`atlardamukammaltavsifini berish, butunterminologiktizimichidan tanlab olish tamoyillarini yaratish faqat tilshunoslik fani uchun emas, balki falsafiy bilimlarga ehtiyoj sezadigan jamiyat hayoti uchun ham ahamiyatlari hisoblanadi.

O`zbek tilidagi normativ lug`at sifatida muhim bo`lgan “O`zbek tilining izohli lug`ati” esa yaqinda qayta tahrir etilgan holda nashr etilganiga qaramay, oldingi nashrda mavjud kamchiliklar bartaraf etilmaganining guvohi bo`lish mumkin. Xususan, bizning tadqiqot ob`ektimiz bo`lgan falsafa faniga oid terminlar misolida shuni ayta olamizki, mazkur izohli lug`atda keltirilgan fls. pometali terminlarning ba`zilari ham tahrirsiz – eski holicha berilgan. Izohli lug`atning yangi tahrirdagi 2023-yildagi nashrida mavjud falsafiy terminlardan tashqari yangi terminologik birliklar uchramaydi.

Yangitadqiqotishimizdaizohlimavjud falsafaga oid terminlarning izohini berish masalasiga oid fizklar, takliflar bayon etiladi. Shuningdek, bugungi kunda jamiyat hayotida mavjud yangi falsafiy tushunchalarni ifodalaydigan, shuningdek, faol qo`llanayotgan falsafaga oid terminlarning ro`yxati keltiriladi. Demak, xulosaqilishmumkinki, so`zlarningma`nolari vaqttafovutida semantik xususiyatiga ko`ra faollik jihatidan farq qilgan. Shuningdek, ba`zi terminlardastlabkiizohlilug`atdafalsafiyterminlik pozitsiyasida emas, ba`zilari esa umuman mavjud ham emas. Dastlabkinashrdafalsafiy termin sifatida berilmagan, keyinchalik fls. pometasi bilan va besh jiddlinashrda yana falsafiyterminlik tomoni tushirib qoldirilgan. Xuddishu vaziyataksinchaholatdaham uchraydi. Ba`zibirliklarbeshtomlilug`atdafalsafaterm ini sifatidaberilganiholda, ikkijiddlida falsafiyterminlikdan mahrumetilgan.

Chegaralangan qatlam leksikasi uchun berilgan uslubiy belgilari izohlanuvchibirlikhaqidamuhim

axborotyekazuvchi lug‘at unsuri hisoblanadi. Ya’ niboshso‘zning qaysisohagaoidyoki qaysi uslubda qo‘llanishi haqida izohda uzundan uzun gapirishzaruratininiyo‘qotadi. Uslubiy xarakteristika lug‘at birliklariga beriladigan izoh – lug‘at maqolasini ixchamlashtirishga yordam beradi. “O‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzuvchilar uchun yo‘riqnomalar”dakeltiriladiki, boshso‘zvaunga oid materiallarni ug‘atmaqolasinitashkil etadi 76 hamda komponentlar quyidagi oladi:

1. Lug‘atning birliklari:
- bosh so‘z;
- turg‘un iboralar.
2. Etimologik ma’lumot
3. Grammatik va uslubiy xarakteristika (uni qayd etuvchi belgilar).
4. Lug‘at birliklari ma’nosini belgilash va qayd etish.
5. Izoh.
6. Tasdiqlovchi misol, illyustrativ sitatalar.

Ma’lumki, terminologik leksika taraqqiy etgan tillarning barchasida umumiste’moldagiso‘zlardan bir necha martako‘pbo‘ladi. Ko‘p sonli terminlarniumumfilologik, tarjimava izohli lug‘atlarda aks ettirish, ularni qanday va qancha tanlab olish juda murakkab masala. Terminnilug‘atuchun tanlashdamilliybirlilik arniye‘tibormarkazidaqo‘yishtilboyliginilug‘atda aks ettirish usuli bo‘lar edi. Falsafaga oid terminlarning 1981 yildagi izohli lug‘atda berilib, keyingi nashrda fls. pometasidan “mahrum qilingan”lari orasida falsafiy tushunchalarni milliy birlik yordamida ifodalash mumkin bo‘lgan variantlari mavjud. Shundank elibchiqib, ushbuterminlarning ma’nosini umumiyqilib berish mumkin edi.

Umuman olganda, fikrimizcha, terminlarniizohhlilug‘atuchuntanlashda uningtegishliliksohasi bo‘yicha ta’rifi, izohiga tayanish lozim. Bu borada Falsafiyterminologiyabo‘yichabirortamxsusizohhlil ug‘atningyo‘q ekanligio‘zbekterminografiyasidagi uchun yana bitta muhim vazifa amalga oshirilishi muhim ekanini ko‘rsatib turibdi. Terminning lug‘at maqolasida keltirilishi kerak bo‘lgan izoh Falsafiy terminlarning ‘zigaxosxususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi chamukammalashtirishimaqsadga muvofiq debhisoblaymiz: - birma’noliterminentsiklopedik izohusuliga ko‘ra izohlash; - polisemantik terminning umumiste’molma’nosi terminlik semasidanko‘rafaolbo‘lgan taqdirda xalq qo‘llaydigan ma’nosini avval berilishi, terminlik ma’nosini fls. pometasi bilan belgilanishi; - polisemantik terminningboshma’n ositerminsifatidaqo‘llanilsa, sohagadoir izohli lug‘atdaberiladiganta’rifigayaqinroq (ya’ni chuqurroq, kengroq) izohlanishi; - o‘zakdoshbirliklar(alifbo tartibida yonma-yon kelishini inobatga olib) qatorida falsafagoaidbo‘lmaganlari bilan bir xil pozitsiyada (termin yoki termin emaslik) qolishining oldini olish maqsadida fls. leksik pometasining har bir terminliksemasimavjud so‘zga berilishi; - termin sifatida qo‘llanuvchi birliklarniumumiste’moldasinonimsifatidaqaralishimumkin bo‘lgan birlikka havola qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Shuningdek, falsafiy terminlarningizohhlilug‘atlardagiizohida quyidagi largaamalqilishnitavsiya qilamiz:

1. To‘liqlik tamoyili. Bunda izohlanuvchi birlikka beriladigan izoh to‘liq keltirilishi lozim. Boshqa so‘z bilan umumiste’moldasinonim bo‘lgan termin unga havola qilinishi yoki o‘z sinonimigayo‘naltirili shiterminlikta lablarida ko‘rsatilganme’yorlargazidholatni keltirib chiqaradi. Ya’ni u umumiste’moldagi so‘zdan kelib chiqqan termin bo‘lgan taqdirda ham uning semasidagi sohaga oid maxsus ma’noaynanaj ratibko‘rsatilishikerak.

2. Ixchamlilik tamoyili. Bu qoidaga ko‘ra izoh maxsus lug‘atdaberilayotgan falsafiyjihatdanmukamma lifodalanganizohnixalqtiligayaqinqlib, ammomazmuniy nansaqlagan holda ixchamlashtirishni nazarda tutadi.

3. Soddalik tamoyili. Lug‘atdan foydalananuvchilar uchun umumiy tushunarli izoh yaratish uchun eng muhimi bu – soddalik. Izohli lug‘atlarni yaratishda, ayniqsa, baynalmilal terminlar hissasi milliyalaridan ko‘p bo‘lgan Falsafiy terminologiyagategishli birliklarizohhidaxalqaro tajribaga tayanish ham ushbutamoyilyetakchiekanligini ko‘rsatadi. Sohaviy lug‘atda mavjud izohning murakkabligi kuzatilsa, soddalik prinsipiغا ko‘ra izohlash o‘rinli. Tilshunos olimlarilm-fantaraqqiyotidagi har bir qadam ilmiy terminlar yaratish yoki ularga aniqlik kiritishga olib kelishini ta’kidlaydi2. Xulosa qilib aytganda, termin larizohinianiqlashtirish va takomillashtirish davr talabi ekanini hisobga olsak, biz tomonimizdantavsiya et ilgan usullar amaliy jihatdan muayyan foydadan xoli bo‘lmaydi.

Falsafiy terminlarboshqa soha, jumladan: kasb-hunarga oid, huquq, tibbiyotga va h.k.larga oid terminlariga qaraganda nofaolroq, lekinbirlamchi, borliq, tajriba, tasavvur, tasodif, turmush, qonun,

obyekt, ong, sabab, sakrash, saqlanish, sifat, subyektiv, nisbiy, mazmun, makon, materiya, miqdor, mohiyat, munosabat, idrok, ikkilamchi, vaqt, zamon, ziddiyat, xususiylik, go'zallik, ruh, harakat, haqiqat - falsafiy terminlari bundan mustasno. Bu terminlar jamiyat hayotida faol tarzda qo'llaniladi.

Izohli lug`atga kiritilishi lozim bo`lgan falsafiy terminlar ro`yxati:

Besh jildli izohli lug`atda:

#### ANALIZ

[yun. analysis – ajratish, ajralish] 1 Tekshirish ob'ektini fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilish usuli. zid. sintez. Analiz shunday bir mantiqiy usuldirki, uning yordami bilan biz buyumlarni, hodisalarни fikran qismlarga bo`lib, ularning ayrim qismlarini, belgilarini, xususiyatlarini ajratamiz. «Logika».

2 ayn. tahsil.

3 Moddaning tarkibini aniqlash. Kimyoviy analiz. Qon analizi. Sifat analizi.

Matematik analiz Oliy matematikaning bir bo`limishu tarzda berilgan ma`nolariga qo'shimcha tarzda 1. Analiz va Sintez [yun. analysis – ajratish, synthesis-birlashtirish] fls. pometasi orqali -kishilar dunyonи bilish jarayonida ishlataligani, o`zaro chambarchas bog`langan tekshirish usullari. Butunni tarkibiy qismlarga fikran ajratish analiz va qismlardan butunni xuddi shunday tarzda birlashtirish sintezdir deb berilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

#### ANTINOMIYA

[yun. antinomia – qonunning ichki ziddiyati] Mantiqan har biri isbotlanadigan ikki qonun, mulohaza yoki xulosa o`rtasidagi ziddiyat. - fls. pometasi orqali berish.

#### AN`ANA

[a. – nasldan naslga o`tuvchi qoida] Hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar. ... Ya`ni tabiat go`zallidan bahra olish – bu oilaning avloddan avlodga o`tib kelayotgan an'anasi! «Tafakkur». Qolaversa, xayriya tadbirlarini markazimiz yoshlari uchun doimiy an'anaga aylantirish mo`l-jallanmoqda. Gazetadan. ...lavozimini suiiste`mol qilayotgan rahbarlar.. milliy rasm-rusmlarimizga putur yetkazmoqdalar, muqaddas an'analarimizning obro`sizlanishiga sabab bo`lmoqdalar. Gazetadan

Izohli lug`atdagi ma`nosiga qo'shimcha tarzda:

AN`ANA [a. – nasldan naslga o`tuvchi qoida] fls. pometasi orqali. - madaniy tajribaning u yoki bu unsurlarini saqlaydigan avloddan-avlodga o`tadigan, o`tmishdan kelajakka meros qoladigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo`ladigan, ijtimoiy jarayonlarning tarixiy-genetik (nasliy) uziyilagini bog`lashga xizmat qiladigan moddiy va ma`naviy qadriyat. deb berilishini tavsiya qilamiz.

Xulosa:

Falsafa har qanday fanning metodologik asosini tashkil etadi. Zero, bilim o`zlikni anglash va olamni bilishdan boshlanadi. Shunday ekan, falsafiy terminlarni izohli lug`atlarda berilishi va tavsifini takomillashtirish tilshunoslikningmuhimmasalalaridandir. O`zbek tilining izohli lug`atlarida ayrim falsafiy terminlarning ma`nosini to`liq izohlanmaganligini yoki lug`atga kirmay qolgan terminlarga guvoh bo`lishimiz mumkin. Izohli lug`atlarda mavjud terminlarning izohini mukammallashtirish va kirishi kerak bo`lgan terminlar ro`yxatini shakllantirish hozirgi kunda o`zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

#### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. A.Hojiyev. O`zbek tilining ko`p jildli izohli lug`atini tuzish uchun qo'llanma
2. Суперанская А.В. Терминология и номенклатура // Проблематика определения терминов в словарях разных типов. –Л.: 1976. – С. 75-83.
3. O`zbek tilining izohli lug`ati 1981-y
4. O`zbek tilining izohli lug`ati 2008-y
5. M.Abdullayeva Falsafa ensiklopedik lug`at T-2010-y
6. E.Sobirova O`zbek tilining izohli lug`atida huquqiy treminlarning berilishi T-2021-y